

Milliy statistika qo‘mitasi stipendiyasi tanlovini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom

I. Umumiy qoidalar

Milliy statistika qo‘mitasi stipendiyasi tanlovini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PF-27-son, “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi PF-6309-son Farmonlari hamda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qaroriga muvofiq, Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish, kadrlar salohiyatini oshirish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va Milliy statistika qo‘mitasi uchun istiqboldagi kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur nizom “Milliy statistika qo‘mitasi stipendiyasi”ni (keyingi o‘rinlarda – Stipendiya) joriy etish tartibi, tanlov mezonlari, saralash bosqichlari, stipendiyani tayinlash va to‘lash mexanizmlari, shuningdek, stipendiya sohiblarining amaliyot o‘tash tartibini belgilaydi. Stipendiya sovrindorlari tanlov asosida aniqlanadi va Milliy statistika qo‘mitasi raisining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

II. Tanlovni tashkil etish tartibi

1. Milliy statistika qo‘mitasi stipendiyasi bo‘yicha tanlov komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) stipendiya uchun o‘tkaziladigan tanlov jarayonini amalga oshiradi.

Komissiya qarorlari komissiya a’zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Komissiya a’zolarining uchdan ikki qismi yig‘ilishda ishtirok etgan taqdirda komissiya vakolatli hisoblanadi.

2. Komissiya quyidagi huquqlarga ega:

– zimmasiga yuklatilgan vazifalarning belgilangan muddatda va sifatli bajarilishini ta’minlash uchun mutaxassislarni jalb etish va ishchi guruhlar tuzish;

– talabgorlardan tanlovga daxldor bo‘lgan qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish;

– komissiya yig‘ilishlariga tanlov jarayonini tashkil etishga aloqador shaxslarni taklif etish va ularning hisobotlarini eshitish;

– tanlov yakunlari bo‘yicha qaror qabul qilish.

3. Komissiya yig‘ilishlari yakuni bo‘yicha bayonnoma komissiya kotibi tomonidan rasmiylashtiriladi hamda Milliy statistika qo‘mitasi raisiga taqdim etiladi. Tanlov g‘oliblari Milliy statistika qo‘mitasi raisi buyrug‘i bilan komissiya qaroriga asosan belgilanadi.

4. Tanlovda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi oliy ta’lim muassasalarida kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan va statistika, iqtisodiyot, moliya, axborot texnologiyalari hamda ma’lumotlar ilmi va tahlili (Data Science & Analytics) yo‘nalishlari bo‘yicha uzluksiz ta’lim olayotgan, bakalavriat bosqichining 3 – 4 - kurs hamda magistratura bosqichining iqtidorli talabalari ishtirok etishlari mumkin.

5. Stipendiya sohiblari soni tanlov natijalari va moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqib, bir o‘quv yili davomida 5 nafardan kam bo‘lmagan miqdorda belgilanadi.

6. Stipendiyaga da’vogarlar Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish ofisiga barcha hujjatlarni belgilangan tartibda elektron shaklda taqdim etadilar. Zarur hollarda hujjatlarning ayrim turlari bo‘yicha asl nusxalari yoki qog‘oz shakldagi variantlari qo‘shimcha ravishda taqdim etilishi so‘ralishi mumkin.

7. Tanlov Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi va e’londa hujjatlarni topshirish muddatlari ko‘rsatiladi. Tanlov umumiy 3 bosqichda tashkil etiladi.

1-bosqich – hujjatlarni taqdim etish va ko‘rib chiqish (bir hafta).

2-bosqich – nazariy bilimlarni baholash testlari (bir hafta).

3-bosqich – komissiya a’zolari bilan suhbat.

1-bosqich saralash bosqichi hisoblanib, ushbu bosqichda nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar ko‘rib chiqiladi hamda belgilangan talablarga mos kelgan nomzodlar 2-bosqichga o‘tkaziladi.

2- va 3-bosqichlar 100 ballik tizim asosida alohida baholanadi.

2- va 3-bosqichlar natijalari umumlashtirilib, ushbu bosqichlar bo‘yicha to‘plangan ballarning o‘rtacha qiymati asosida reyting shakllantiriladi hamda reytingda eng yuqori ball to‘plagan nomzodlar stipendiya sovrindorlari deb topiladi.

2- va 3-bosqichlar natijalari bo‘yicha e’tirozlar bo‘lgan taqdirda, nomzodlar natijalar e’lon qilingan kundan boshlab 3 ish kuni ichida apellyatsiya arizasini taqdim etishlari mumkin. Apellyatsiya arizalari 1 oy muddatda ko‘rib chiqiladi.

Har bir bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar xabardor qilinadi.

Tanlov yakuniy natijalariga ko'ra stipendiya sovrindorlari ro'yxati Milliy statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

III. Tanlov shartlari

8. Nomzod:

- statistika, iqtisodiyot, matematika va AKT sohalarida chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi va ushbu sohalar bo'yicha testlardan o'tishi;
- Intelligence Quotient (IQ) testi natijalari bo'yicha minimal mezondan o'tishi;
- yuqori o'rtacha reyting ko'rsatkichiga ega bo'lishi (5 ballik tizimda: Grade Point Average (GPA) ≥ 4.0);
- xorijiy tillarni bilishi (ingliz, rus tillari, boshqa xorijiy tillarni bilish tanlov jarayonida qo'shimcha ustunlik beradi);
- namunali xulq-atvorga ega bo'lishi;
- ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

9. Nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ma'lumotnoma (CV), bog'lanish uchun aloqa ma'lumotlari ko'rsatilgan holda;
- rag'bat xati (motivation letter);
- akademik reyting ko'rsatkichlari (akademik ma'lumotnoma);
- xorijiy tillarni bilish bo'yicha hujjatlar (mavjud bo'lsa);
- erishgan yutuqlari va ijtimoiy faolligi haqida ma'lumot va tasdiqlovchi hujjatlar.

Hujjat topshirgan nomzodlarning shaxsiy ma'lumotlari faqat tanlov jarayonida nomzodlarni baholash maqsadida foydalaniladi, ma'lumotlarning konfidensialligi ta'minlanadi hamda uchinchi shaxslarga taqdim etilmaydi.

IV. Stipendiyani tayinlash va to'lash tartibi

10. Stipendiya bir o'quv yili uchun taqdim etiladi. Stipendiya 2025-2026-o'quv yili uchun 2026-yil fevral-iyun oylari davomida to'lanadi. 2026-2027-o'quv yilidan boshlab stipendiya uchun tanlov sentabr oyida o'tkaziladi va oktabr-iyun oylari mobaynida to'lanadi.

11. Oylik stipendiya miqdori O'zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning uch barobariga teng etib belgilanadi.

12. Ushbu Nizomda ko'rsatilgan stipendiya miqdorlari amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi. Soliq qonunchiligiga o'zgarishlar kiritilgan taqdirda, to'lovlar tegishli soliq majburiyatlari inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

13. Stipendiya sohiblariga sertifikat topshiriladi.

V. Stipendiya sohiblarining Milliy statistika qo‘mitasida amaliyot o‘tashi tartibi

14. Stipendiya sohiblari Milliy statistika qo‘mitasining tegishli boshqarmalarida o‘quv yili davomida o‘quv amaliyoti o‘tashlari uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi.

15. O‘quv amaliyotining maqsadi – yoshlarni statistik jarayonlar, ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish, xalqaro metodologiyalar bilan yaqindan tanishtirishdir.

16. Stipendiya sohiblari haftasiga uch kun Milliy statistika qo‘mitasiga kelib, haftasiga kamida 15 soat amaliyot o‘tashlari lozim. Stipendiya sohiblariga tajribali ustozlar (supervayzerlar) biriktiriladi.

17. Amaliyot davomida talabaning intizomi, mas’uliyati, professionalligi qo‘shimcha tarzda baholanadi va yuqori natijalarga erishgan nomzodlar kelgusida Milliy statistika qo‘mitasi uchun istiqbolli kadrlar rezerviga kiritiladi. Milliy statistika qo‘mitasining Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limi ushbu nizom bilan har bir stipendiya sohiblarini tanishtirilishini ta’minlaydi.

VI. Stipendiyani bekor qilish tartibi

18. Stipendiya quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- akademik qarzdorlik paydo bo‘lgan taqdirda;
- tanlov jarayonida yoki stipendiya olish davrida noto‘g‘ri yoki soxta ma’lumotlar taqdim etilganligi aniqlanganda;
- stipendiya sohibining almashinuv dasturlarida ishtirok etishi natijasida olti oydan ortiq muddat davomida o‘qish joyida bo‘lmagan taqdirda;
- stipendiya sohibi talabalar safidan chetlashtirilganda;
- stipendiya sohibiga akademik ta’til berilganda;
- stipendiya sohibi vafot etganda va boshqa uzrsiz sabablar bilan 30 kundan ortiq amaliyotga qatnasha olmagan hollarda.
- amaliyot davomida odob-axloq qoidalariga rioya etilmagan taqdirda;
- amaliyot davomida belgilangan vazifalarni uzrsiz sabablar bilan muntazam bajarmasa va stipendiya sohibiga biriktirilgan ustoz (supervayzer) baholashida “qoniqarsiz” natija qayd etilsa;
- amaliyot davomida ma’lumotlarni himoya qilish qoidalari buzilganda;
- amaliyot davomida mehnat intizomi va Milliy statistika qo‘mitasi ichki tartib va qoidalari buzilgan hollarda.

VII. Yakuniy qoidalar

19. Mazkur nizom talablariga rioya qilmagan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

**“Milliy statistika qo‘mitasi stipendiyasi” tanlovini o‘tkazish bo‘yicha
nomzodlar faoliyatini baholash mezonlari**

T/r	Ko‘rsatkichlar	Izoh
1-bosqich – Hujjatlarni taqdim etish va ko‘rib chiqish		
1.	Ma‘lumotnoma (CV)	Ta‘limi, akademik ko‘rsatkichlari, bilim va ko‘nikmalari, til bilish darajasi hamda ijtimoiy faolligi ko‘rsatiladi.
2.	Rag‘bat xati (Motivation letter)	Statistika sohasiga qiziqishi, stipendiyaga da‘vogarlik sabablari va Milliy statistika qo‘mitasida amaliyot o‘tashdan ko‘zlangan maqsadlari bayon etiladi.
3.	Akademik reyting (GPA) to‘g‘risida ma‘lumotnoma	Nomzodning o‘qishdagi o‘rtacha reyting ko‘rsatkichi (5 ballik tizimda: $GPA \geq 4.0$) tasdiqlanadi.
4.	Xorijiy tillarni bilish bo‘yicha hujjatlar (<i>mavjud bo‘lsa</i>)	Xorijiy tillarni bilish bo‘yicha sertifikatlar yoki tasdiqlovchi ma‘lumotlar.
5.	Erishilgan yutuqlar va ijtimoiy faollikni tasdiqlovchi hujjatlar	Sertifikatlar, diplomlar, konferensiya ishtiroki, volontyorlik yoki loyiha faoliyati.

T/r	Ko‘rsatkichlar	Qo‘yiladigan ball	Izoh
2-bosqich – Nazariy bilimlarni baholash testlari <i>(1-bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tganlar taklif qilinadi)</i>			
1.	Statistika, iqtisodiyot, matematika, axborot texnologiyalari va analitik fikrlash yo‘nalishlari bo‘yicha nazariy bilimlarni baholash testlari	40 ballgacha	statistika bo‘yicha savollarga – 10 b.; iqtisodiyot bo‘yicha — 10 b.; matematika bo‘yicha — 10 b.; axborot texnologiyalari – 5 b.; analitik fikrlash — 5 b.
2.	IQ testi natijasi	20 ballgacha	Standartlashtirilgan test natijasi asosida baholanadi. Ball test natijasiga proporsional hisoblanadi.
3.	Akademik reyting ko‘rsatkichi (GPA/rejting)	15 ballgacha	Rejting ballga proporsional tarzda o‘tkaziladi (5 ballik tizimda: $GPA \geq 4.0$).

			Akademik qarzidorlik mavjud bo'lsa tanlovga qo'yilmaydi.
4.	Ingliz tili bo'yicha test	10 ballgacha	Ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi hujjati (IELTS, CEFR, TOEFL) bo'lmagan ishtirokchilar belgilangan tartibda test sinovidan o'tadilar. B2 va undan yuqori darajadagi ingliz tili sertifikatiga ega nomzodlarga maksimal 10 ball qo'shiladi.
5.	Ilmiy-tadqiqot faoliyati va tanlovlarda ishtirok	5 ballgacha	Statistika sohasidagi ilmiy ishlari (tezislar, maqolalar), shuningdek, fan olimpiadalari hamda ko'rik-tanlovlarda g'olibligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida baholanadi.
6.	Ijtimoiy faollik, liderlik va namunaviy xulq-atvor	5 ballgacha	Jamoaviy ishlarda faollik, volontyorlik faoliyati, tadbirlarni tashkil etishdagi tashabbuskorlik, shuningdek intizomiy jazolarning mavjud emasligi tavsiyanoma hamda tasdiqlovchi hujjatlar asosida baholanadi.
7.	Rag'bat xati (Motivation letter)	5 ballgacha	Statistika sohasiga qiziqish sababi va maqsadlari.
3-bosqich – Tanlov komissiyasi bilan suhbat <i>(2-bosqichdan muvaffaqiyatli o'tganlar taklif qilinadi)*</i>			
Milliy statistika qo'mitasida komissiya a'zolari bilan o'tkaziladigan suhbat 100 ballik tizim asosida baholanadi. Suhbat davomida nomzodlarning sohaga doir bilimlari, mantiqiy fikrlash qobiliyati, liderlik salohiyati, jamoada ishlay olish qobiliyati hamda ijtimoiy faolligi baholanadi.			

** II bosqich uchun maksimal ball – 100.*

III bosqichga o'tish uchun minimal ball – 60.

Izoh (komissiya a'zolari uchun metodik eslatmalar):

Nomzodning natijalari 100 ballik tizimda umumlashtiriladi.

Baholashda taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligi va tasdiqlovchi manbalar mavjudligi inobatga olinadi. Tanlov g'oliblari Milliy statistika qo'mitasida amaliyot o'tashi nazarda tutilgani sababli, nomzodning mas'uliyati va amaliy ko'nikmalari alohida e'tiborga olinadi.